



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,
18-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori	14
Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rmi	23
Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari	28
B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	47
A. Safarov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
Xolmatov Doston Dilshod o'g'li	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi	60
Xolmurodova Sarvinoz	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
G'afforova Dildora Ergashevna	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
Yusupova Umida Zayniddin qizi	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil	78
Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi	81
Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
Xurramova Sojida Abdunazar qizi	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi	94
Z. N. Urunova, M. Jaborova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash	97
Sattorova Shirinoy San'atovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
Buvrayev Akram Rustam o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar	104
Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati	107
Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	111
Akaboyeva Malika Raxmatovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi	114
Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	117
Xoliyeva Sevara Rustam qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish	122
Narmatova Fotima Dilshod qizi	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements	127
Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
Meyliyeva Sevinch Bozor qizi	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari	132
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish	136
Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi	139
Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя	144
Дустқобилов Акмал Бобомуродович	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor	149
Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Исломбек Ильесович	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar	154
Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri	160
Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli	165
Amonov Mirjon Namozovich	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni	170
Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari	174
Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	178
Jumayeva Guzal Xayriddin qizi	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish	183
Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari	187
Axralova Marg'uba Akmalxanovna	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	191
Jumanova Xafiza Xoliqulovna	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	196
Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti	202
Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction 205 <i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>
	Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati 208 <i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>
	Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari 214 <i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>
	Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari 219 <i>Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>
	Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish 222 <i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>
	Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari 226 <i>Norboeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>
	Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari 230 <i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>
	Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili 236 <i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>
	Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 240 <i>Kozimov Sayfulloh Maxammadjon o'g'li</i>
	Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish 245 <i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>
	Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari 249 <i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>
	Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish 253 <i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>
	Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish 257 <i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>
	Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlari 261 <i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>
	Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari 264 <i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>
	STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations 268 <i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>
	Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari 272 <i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>
	Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi 276 <i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>
	Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools 279 <i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>
	Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration 282 <i>Shahlo Obidova</i>
	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish 286 <i>Shodmonova Shoira Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>
	Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari 290 <i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки)	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



O'QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATIDA MA'NAVIY- AXLOQIY FAZILATLARNING AHAMIYATI

Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna
 P.f.n., dotsent, Jizzax DPI

Annotatsiya: O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati, ularning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligiga ta'siri hamda yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, pedagog shaxsining ma'naviy qiyofasi, kasbiy kompetentligi va pedagogik madaniyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish masalalari hamda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ma'naviy tarbiyaning ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, axloq, pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlik, pedagogik madaniyat, ma'naviy tarbiya, o'qituvchi shaxsi, pedagogik etika, tarbiya jarayoni, milliy qadriyatlar.

Abstract: The importance of moral and ethical qualities in teachers' professional activities, their impact on the effectiveness of the educational process, and their role in educating the younger generation are analyzed. In addition, the relationship between the teacher's moral image, professional competence, and pedagogical culture is highlighted. The significance of moral education in the process of training future teachers, as well as issues related to the development of teachers' moral and ethical qualities within the modern education system, is scientifically and theoretically substantiated.

Key words: spirituality, morality, pedagogical mastery, professional competence, pedagogical culture, moral education, teacher personality, pedagogical ethics, educational process, national values.

Аннотация: Рассматривается значение духовно-нравственных качеств в профессиональной деятельности учителя, их влияние на эффективность учебно-воспитательного процесса, а также роль в воспитании молодого поколения. Кроме того, раскрывается взаимосвязь между духовным обликом личности педагога, его профессиональной компетентностью и педагогической культурой. Научно-теоретически обосновывается значение духовного воспитания в процессе подготовки будущих педагогов, а также вопросы развития духовно-нравственных качеств учителей в современной системе образования.

Ключевые слова: духовность, нравственность, педагогическое мастерство, профессиональная компетентность, педагогическая культура, духовное воспитание, личность учителя, педагогическая этика, воспитательный процесс, национальные ценности.

KIRISH

Hozirgi raqamlashtirish va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatli hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega yosh avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda ta'lim tizimi hal qiluvchi o'rin tutadi. Ayniqsa, pedagog shaxsi va uning kasbiy faoliyati ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o'quvchilar qalbiga yo'l topa oladigan, ularning dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasi va hayotiy qadriyatlarini shakllantiruvchi tarbiyachidir. Shu bois pedagogning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini uning kasbiy mahorati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. Jumladan, halollik, vijdonlilik, mas'uliyat, mehr-oqibat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, adolatparvarlik kabi insoniy fazilatlar o'qituvchining pedagogik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ham pedagog kadrlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasiga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Chunki zamonaviy o'qituvchi faqat bilimli emas, balki yuqori madaniyatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglaydigan, yoshlarga namuna bo'la oladigan shaxs bo'lishi lozim. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'QR-637-son¹

1 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'QR-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/-5013007>

Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham pedagog kadrlarni har tomonlama yetuk etib tayyorlash masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Pedagogik faoliyatning o'ziga xos jihati shundaki, o'qituvchining har bir xatti-harakati, muomalasi, nutqi va shaxsiy namunasi o'quvchilarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchi bola uchun ideal shaxs sifatida qabul qilinadi. Shu sababli pedagogning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'quvchilar tarbiyasida muhim tarbiyaviy vosita vazifasini bajaradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ularni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish hamda pedagog kadrlar tayyorlash jarayoniga tatbiq etish bugungi kun pedagogikasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'qituvchining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini va pedagog shaxsining tarbiyaviy ahamiyati masalasi qadimdan mutafakkirlar, pedagog olimlar va faylasuflar diqqat markazida bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari asarlarida ustoz shaxsiga yuksak baho berilgan hamda uning ma'naviy kamoloti jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralgan.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotida axloqiy tarbiyaning ahamiyatini yoritib, rahbar va murabbiy shaxsi ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, jamiyat taraqqiyoti bilim va yuksak axloq uyg'unligi asosida ta'minlanadi.

Alisher Navoiy asarlarida ham inson ma'naviyati, odob-axloq, mehr-shafqat va komil inson tarbiyasi g'oyalari keng yoritilgan. Mutafakkir ustozning shaxsiy namunasi tarbiya jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida esa tarbiya masalasiga milliy pedagogika nuqtai nazaridan yondashilgan. Olim tarbiyani inson hayoti uchun hal qiluvchi omil sifatida baholab, o'qituvchi ma'naviyatini yosh avlod tarbiyasining asosiy mezon sifatida ko'rsatadi. Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir”, degan fikri bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Rus pedagog olimi K.D. Ushinskiy ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsi muhim o'rin tutishini ta'kidlab, “Tarbiyada hamma narsa o'qituvchi shaxsiga bog'liq”, deb yozgan. Uning qarashlarida pedagogning ma'naviy madaniyati va insonparvarlik fazilatlarini ta'lim samaradorligining asosiy sharti sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham mazkur muammo keng o'rganilmoqda. O'zbekistonlik olimlardan O. Musurmonova pedagogik kompetentlik va ma'naviyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan bo'lsa, B. Ziyomhammadov pedagogik mahorat tarkibida axloqiy madaniyat va muomala etikasi muhim o'rin tutishini asoslab bergan.

R. Ishmuxamedov esa innovatsion ta'lim muhitida pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda pedagogning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini quyidagi yo'nalishlarda tahlil qilinmoqda:

- pedagogik kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida;
- kasbiy madaniyat mezon sifatida;
- ta'lim sifatini ta'minlovchi omil sifatida;
- o'quvchilar tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim vosita sifatida.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini nafaqat uning shaxsiy kamoloti, balki ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlovchi muhim pedagogik omil hisoblanadi. Biroq zamonaviy ta'lim muhitida pedagoglarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish masalasi hali ham qo'shimcha tadqiqotlarni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni olish uchun ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, pedagogik manbalar hamda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Shuningdek, o'qituvchining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini va ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini aniqlash maqsadida kuzatish, suhbat va so'rovnomalar usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar pedagoglarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini, pedagogik faoliyat samaradorligi hamda shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil hamda umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, o'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining pedagogik samaradorlikka ta'siri yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsi jamiyatning intellektual va ma'naviy taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki pedagog faqatgina ma'lum bir fanni o'qituvchi emas, balki yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi va hayotiy qadriyatlarini shakllantiruvchi tarbiyachidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy-axloqiy fazilatlar insonning ichki dunyosi, hayotiy qarashlari, xulq-atvori va jamiyatga munosabatini belgilovchi muhim mezonlardan hisoblanadi. O'qituvchida bunday fazilatlarining shakllanganligi uning kasbiy mahorati, pedagogik madaniyati va ta'lim jarayonini tashkil etish samaradorligida namoyon bo'ladi.

Pedagog shaxsida quyidagi ma'naviy-axloqiy sifatlar muhim o'rin tutadi:

- insoniylik va mehr-oqibat;
- halollik va vijdonlilik;
- adolatparvarlik;
- mas'uliyat va burch hissi;
- bag'rikenglik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat;
- kasbiy etikaga rioya qilish;
- yuksak muomala madaniyati.

Mazkur fazilatlar o'qituvchining o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot olib borishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qituvchining ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bolalar ko'p hollarda o'qituvchi xatti-harakati, muomalasi va nutq madaniyatidan ibrat oladilar.

Pedagogik faoliyat samaradorligida ma'naviy fazilatlarining ahamiyati

Pedagogning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni shakllantirish, o'quvchilarda bilim olishga qiziqish uyg'otish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlariga bog'liq bo'ladi.

Ma'naviy yetuk pedagog o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga oladi, har bir bolaga hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'ladi, ta'lim jarayonida adolat tamoyiliga amal qiladi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi hamda tarbiyaviy ta'sirning samarali usullaridan foydalanadi.

Bunday yondashuv natijasida o'quvchilarda o'qishga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi, jamoada o'zaro hurmat va hamjihatlik muhiti qaror topadi.

Shu bilan birga, pedagogning ma'naviy fazilatlarini uning kasbiy imiji va jamiyatdagi nufuzini ham belgilaydi. O'qituvchining yuksak madaniyati, xushmuomalaligi va mas'uliyatligi uning o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida hurmat qozonishiga sabab bo'ladi.

O'qituvchining shaxsiy namunasi – tarbiyaning muhim vositasi

Pedagogik faoliyatda shaxsiy namuna tarbiyaning eng ta'sirchan usullaridan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchilar ko'proq o'qituvchining amaliy faoliyati va xulq-atvorini kuzatish orqali tarbiyalanadilar. Agar o'qituvchi o'z faoliyatida halollik, intizom, mehr-oqibat va adolat tamoyillariga amal qilsa, o'quvchilarda ham shunday fazilatlar shakllanadi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qituvchi ideal inson sifatida qabul qilinadi. Shu bois pedagog o'z nutqi, kiyinish madaniyati, muomalasi va xatti-harakatlariga doimo e'tiborli bo'lishi talab etiladi.

O'qituvchining shaxsiy namunasi o'quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarini shakllantiradi, intizom va mas'uliyat hissini rivojlantiradi, jamoada sog'lom muhit yaratadi hamda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini kuchaytiradi.

Bu esa ta'lim va tarbiya jarayonining uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish masalalari

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalasi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagog nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki yuqori ma'naviy salohiyatga ham ega bo'lishi lozim.

Shu maqsadda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida pedagogik etika, muomala madaniyati, nutq madaniyati, ma'naviyat asoslari hamda pedagogik mahorat kabi fanlarni samarali o'qitish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, muammoli vaziyatlar tahlili, trening va seminarlar tashkil etish, milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish hamda mustaqil ijodiy faoliyatni rag'batlantirish samarali usullar hisoblanadi.

Bu jarayonda pedagog-o'qituvchilarning shaxsiy namunasi ham muhim o'rin tutadi. Chunki talabalar ustozlarning kasbiy va ma'naviy qiyofasidan o'rnak oladilar. Hozirgi kunda globallashuv jarayoni, internet va ommaviy madaniyat ta'siri yoshlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy qadriyatlar, ma'naviy meros va axloqiy tarbiyani saqlab qolish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu borada o'qituvchi yoshlarni turli yot g'oyalari va salbiy ta'sirlardan himoya qiluvchi ma'naviy rahnamo vazifasini bajaradi.

Pedagog o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur, insoniylik, bag'rikenglik hamda axborot madaniyati kabi sifatlarni shakllantirishi zarur. Shu sababli zamonaviy o'qituvchi doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, ma'naviy va kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirib borishi talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlar muhim pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, ular ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Pedagogning yuksak ma'naviyati, axloqiy madaniyati va insoniy fazilatlarini o'quvchilar shaxsining shakllanishi, ularning hayotiy pozitsiyasi va ma'naviy dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega o'qituvchi ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratadi, o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatadi va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, o'qituvchining shaxsiy namunasi o'quvchilar uchun muhim tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ularning ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Buning uchun oliy ta'lim muassasalarida pedagogik etika, muomala madaniyati, ma'naviyat va pedagogik mahoratga oid bilimlarni chuqur o'qitish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, globallashuv sharoitida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda o'qituvchining ma'naviy qiyofasi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ma'naviy yetuk, kasbiy salohiyatli va axloqan barkamol pedagoggina jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan komil insonni tarbiyalay oladi. Demak, o'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
2. Forobiy A. N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 224 b.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 280 b.
4. Ushinskiy K. D. Pedagogik asarlar to'plami. – Moskva: Pedagogika, 1988. – 320 b.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid davlat siyosatiga doir farmon va qarorlari. – Toshkent, 2021.
7. Ishmuxamedov R. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 304 b.
8. Ziyomhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 240 b.
9. Musurmonova O. Pedagogik kompetentlik va ma'naviyat. – Toshkent: Fan, 2018. – 216 b.
10. Mahkamov U. Axloqiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 198 b.
11. Quronov M. Milliy tarbiya va yoshlar ma'naviyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 256 b.
12. Hakimov M. Pedagogik etika va muomala madaniyati. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 176 b.
13. Sayidov A. Zamonaviy pedagogning kasbiy kompetensiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 220 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.